Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
<i>Nazarova Asila Mamarasulovna</i>	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
<i>Rustamova Khurshida Yusupovna</i>	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
<i>Xusayinova Go'zal Abdurasulovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
<i>Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna</i>	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
<i>Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
<i>Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi</i>	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
<i>Axmedova Dilnora Kobiljonovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
<i>Ismoilov Temurbek Islomovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda badiiy tafakkurning rivojlanish dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar	2266
<i>Shaxobitdinov Xayotbek Hakimjon o'g'li</i>	
Lexicon Expansion Model for ELF Learners: a Cognitive, Pedagogical, and Usage-Based Approach.....	2271
<i>Komola Khikmatullaevna Usmanova</i>	
Ta'limni fundamentallashtirish sharoitlarida axborot xavfsizligi texnologiyalarini o'qitish usullari va o'quv materiallari	2275
<i>Boymanov Jasur Isroil o'g'li</i>	
O'quvchilarda ta'lim jarayonida kimyoviy modellardan foydalanish tajribasi	2279
<i>Jobborov Farxod Bo'riyevich</i>	
Fanlararo aloqadorlikdagi masalalarni dasturiy ta'minot vositasida STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali yechishga o'rgatish metodikasi	2282
<i>Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishni tatbiq etishning usul, vosita va metodlari.....	2286
<i>Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Shavkatova Jasmina Jamshid qizi</i>	
Ta'limda raqamli darsliklarning o'rni va ahamiyati ("Dasturlash" fani misolida)	2291
<i>Tursunov Mirolim Ahmadovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog-tarbiyachi faoliyatiga kreativ yondashuv.....	2296
<i>Z. S. Muxtorova</i>	
Abdulla Avloniy pedagogik asarlari orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati.....	2300
<i>Raxmatova Dilbar Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni qo'llashning samaradorligi	2304
<i>Choriyeva Barno Alisher qizi</i>	
O'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga asoslangan konstruktiv fikrlashga yo'naltirilgan ta'lim (kimyo fani misolida)	2307
<i>Azamatova Dilafruz Saydiganiyevna</i>	
Совершенствование медиаграмотности будущих учителей начальных классов на основе интерактивных методов и геймификации	2311
<i>Пулатова Муниса Садриддиновна</i>	
Talabalarda o'ziga bo'lgan ishonch hissini oshirishda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning ahamiyati	2317
<i>Abdumannatova Nargiza Abdumajidova</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativ fikrlashga oid tushunchalarni nostandart vaziyatlar asosida rivojlantirish	2320
<i>Raxmatova Nodira Imamovna</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishning ahamiyati.....	2323
<i>Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi</i>	
ESG tamoyillarining global ta'lim siyosatidagi o'rni	2328
<i>Tursunova Shahzoda Baxromovna</i>	



Internet kommunikatsiya vositalarining yoshlar ijtimoiy-psixologik xususiyatlariga va ularning ijtimoiy xulq-atvoriga ta'siri.....	2334
<i>Kamiljanova Malikaxon Ravshonbek qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar asosida tarbiyaviy kompetensiyalarni shakllantirish ...	2338
<i>Yusupova Nozima Mahamadaliyevna</i>	
Духовное воспитание и концепция совершенного человека в трудах Абдурахмана Джамии.....	2342
<i>Каримов Жамшид</i>	
Raqamli chalg'ish fenomeni sifatida fabbing: talabalarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvori tahlili...	2347
<i>Matchanova Dilbar Yusupboyevna</i>	
Talabalarning emotsional holati va psixologik barqarorligining akademik muvaffaqiyatga ta'siri.....	2350
<i>Jabborova Malohat Azimovna</i>	
Challenges and Limitations of Using AI in Language Teaching.....	2355
<i>Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi</i>	
Rus tilidagi tadqiqotlarning tarixshunoslik talqini	2358
<i>Axmatov M. M.</i>	
O'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash strategiyasini loyihalashda "Keys-stadi" metodikasining ahamiyati.....	2362
<i>Xasanov Mansur Abrarovich, Muxammadiev Umarali Sheraliyevich</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darsida iqtidori o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari	2367
<i>Ergashev Murodbek Ikromovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar va samarali metodlar.....	2370
<i>Ruzikulova Surayo Muxiddinovna</i>	
Bo'lajak aktyorlarning kasbiy mahoratini takomillashtirishda jadid ma'rifatparvarlari metodikasini takomillashtirishning ilmiy asoslari.....	2374
<i>Mamaniyozov Shaxzod Abror o'g'li</i>	
O'quv jarayoniga moslashuv ijtimoiy-psixologik muammo sifatida	2378
<i>Sultanova Shahnoza Mirxalilovna</i>	
Ingliz va o'zbek tillaridagi sifatlarning qiyosiy tahlili	2382
<i>Raxmonova E'zoza Sherzod qizi</i>	
Pedagogik mahorat asosida ta'lim metodlarining samaradorligini oshirish	2385
<i>Karimov Ilhom Normamatovich, Alikulova Saodat Muxitdinovna</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining axloqiy tarbiyasini shakllantirish	2389
<i>Yaqubova Dinora Bahodirovna</i>	
Ta'limning interfaol va innovatsion metodlari	2393
<i>X. K. Qarshiboyeva</i>	
Роль международных оценочных программ в оценке знаний учащихся.....	2396
<i>Каландарова Дилноза Самандаровна, Зарипова Зайнаб Нарзулло кизи</i>	
Inkorporatsion topshiriqlarning texnologiya ta'limida fanlararo integratsiyani ta'minlashdagi ahamiyati	2400
<i>Jo'rayeva Dilnoz Raxmidinovna</i>	
O'zbek bolalar folklori tasnifi, janriy tarkibi va Oxunjon Safarov yondashuvi.....	2404
<i>O'rinova Maftuna No'mon qizi</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini moliyalashtirishning zamonaviy holatini tahlil qilish	2409
<i>Xudoykulova Nilufar Xamdamovna</i>	
The Future of AI in English Language Teaching: Trends, Predictions, and Research Directions.....	2414
<i>Mavlonova Sevinch Abdulkarim qizi</i>	
Muhandis-texnik talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	2418
<i>Nazarova Marg'uba Gulamovna</i>	
Oliy ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning zamonaviy modellari	2423
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida xavfsiz rivojlanish muhitini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari.....	2428
<i>Maxkamova Husnida Ro'ziboyevna</i>	
O'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari tahlili	2431
<i>Mavlanova Saidaxon Umarovna</i>	
Matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish	2436
<i>Yuldashev Bahodir Narzullayevich</i>	

Tarbiya darslari orqali birinchi sinf o'quvchilarini maktabga samarali moslashtirish yo'llari	2439
Tursunonova Nozima Ilxomovna	
O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari	2447
Axmedova Gavhar Faxriddinovna	
Artificial Intelligence in Educational Management: Opportunities and Predictive Mechanisms in the Context of Uzbekistan.....	2451
Abduxamidova Muyassar	
Malakali belbog'li kurashchilarni mashg'ulot jarayonida texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirish.....	2457
Ahmadjonov Dilmurod Davronjon o'g'li	
Ijtimoiy tarmoqlarning kognitiv fikrlash rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'siri	2460
Axmedov Davlatbek Saloxidin o'g'li	
Developing Coordination and Balance in Athletics	2464
Dehqonova Mahmuda Ortiqovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni Case Study texnologiyasi asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash	2470
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna, Doliyeva Maxfuza Inomiddinovna	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati	2473
G'iyosova Dilovar Orif qizi	
Intellekt xaritalar yordamida o'quvchilarning "ijodiy fikrlash" ko'nikmalarini rivojlantirish.....	2476
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Zamonaviy rivojlanish tendensiyalari orqali yosh voleybolchilarni tayyorlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	2482
Imomov Sirojiddin Ilhomovich	
The Historical Roots of Business English and the Lingua Franca.....	2486
Jabborov Ilyosjon Abduraim ugli	
O'quvchilarni mustaqil kasbiy faoliyatga tayyorlashda darajalangan o'quv topshiriqlaridan foydalanish	2490
Kadirova Gulnora Xasanovna	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning elektrofizik xususiyatlarini o'rganish.....	2496
Kosimov Asroriddin Sadiyevich, Ubaydullayeva Komila Bozor qizi	
Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish usullari (boshlang'ich sinf matematika darslari misolida)	2501
M. M. Qosimova	
O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy an'analar va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashning psixologik omillari	2504
Maxmudjonov I. I.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kitobga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	2507
Muminova Dilfuza Bahromjanovna	
Inklyuziv ta'lim jarayonida autizm spektri buzilgan bolalarning pedagogik-psixologik yondashuvi.....	2510
Qodirova Mahzuna Shamshidin qizi	
Tabiiy fanlar darslarida guruhli ish shakllarini takomillashtirish nazariyasi va metodi.....	2513
Safarova Shahlo Shuhratali qizi	
Maktabda informatika fanini o'qitishda virtual va interaktiv laboratoriyalardan foydalanish	2517
Saidova Dilfuza Ergashovna, Sayfullayeva Sevinch Bahodir qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini va axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari	2521
Saidova Mohinur Jonpo'latovna, Sobirova Sabina San'at qizi	
Developing Strength and Endurance in Wrestlers.....	2526
Shermatov Gulom Qaxxorovich	
Teaching English for Medical Students: an Effective Approach to Language Acquisition	2532
Shermoxamodova Diyorakhon Nurmuhammad kizi	
Sportda kamolotga erishish bosqichi birinchi yilida shug'ullanuvchi dzyudochilarning qarshi hujum samaradorligini oshirish.....	2535
Sirojiddin Sa'dullayev Ilhom o'g'li	
Sud psixolog ekspertlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ijtimoiy-psixologik omillar	2539
Tajiyeva Nilufar Tohirjon qizi	
Malakali belbog'li kurashchilarda texnik-taktik harakatlarni modellashtirish va harakatlar assimetriyasini bartaraf etish	2543
To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "4K" ta'limni amalga oshirishga tayyorlash texnologiyasi va metodik shart-sharoitlari	2546
<i>Toshtemirova Maftuna Tolibjonovna</i>	
Ta'lim muassasalari o'quvchilarining ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishni amaliyotga tatbiq etishning pedagogik shart-sharoitlari.....	2550
<i>Uzakov Arslon Avazovich</i>	
Maktab direktori faoliyatida psixopedagogik liderlik tamoyillari	2553
<i>Xolboboyev Shaxruz Shokirovich</i>	
Ayollarda gender identivlik namoyan bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatalari	2559
<i>Xudoynazarova Nodira Shaydullayevna</i>	
Boks texnikasini takomillashtirish usullari.....	2562
<i>Xusanboy Mamatqulov</i>	
No-filologik yo'nalishlarda yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha pedagogik strategiyalar: transformativ yondashuv	2566
<i>Yo'Ichiyeva Dilrabo Dilshod qizi</i>	
O'zbek va rus xalq tez aytishlaridagi tasvir vositalarining poetik vazifalari.....	2570
<i>Ayupova Xilola Azamatovna</i>	
Инновационная методика интенсивного обучения студентов русскому языку как неродному в сопоставлении с их родным узбекским	2574
<i>Касимов Азиз Бердимуратович</i>	
Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatini tahlili.....	2578
<i>Ummataliyev Sherzod Serali o'g'li</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun ijtimoiy va kasbiy moslashuvni rivojlantirish texnologiyalari	2581
<i>Amriyeva Dilfuza Ruzievna</i>	
Ta'lim jarayonida semiotik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan semiotik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi	2586
<i>Abdusamatov Alisher Sobirovich</i>	
Oliy o'quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalarini mezonlar asosida tahlil etishda tajriba-sinov ishlarining natijalari va ularning tahlili	2591
<i>Asqarov Abrorjon Hayitmirzaevich</i>	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida oliy ta'limni boshqarishning falsafiy, psixologik, ijtimoiy va pedagogik shartlari	2602
<i>To'rabekov Farxod Sanakulovich</i>	
Parataekvondocilarning musobaqa oldi tayyorgarligi	2607
<i>Abdufattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	
Linguistics in Diplomatic Discourse: The Role of Language in International Relations	2610
<i>Gulmira Kamoladdinovna Madirimova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishning lingvistik, pedagogik va psixologik asoslari	2613
<i>Jo'rayeva Gulchexra Abduvohidovna</i>	
Milliy harakatli o'yinlarning talaba yoshlarda chaqqonlik jismoniy sifatini shakllantirishdagi ahamiyati	2617
<i>Raxmatova Nodira</i>	
Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari.....	2621
<i>Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich</i>	
Geometriya darslarida tarixiy materiallar asosida o'quvchilarning mustaqil ta'limini rivojlantirish	2625
<i>Nosirova Dilnoza Toir qizi</i>	
Funksiya grafisini chizish kompetensiyasini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni	2629
<i>Musurmonova Shahlo G'ulomovna</i>	
Zamonaviy innovatsion ta'lim tizimida STEAM yondashuvining qo'llanilishi, imkoniyatlari va istiqbollari ...	2633
<i>Rashidova Sanobar Zokirovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning innovatsion texnologiyalari	2638
<i>Qosimova Zuhraxon G'afur qizi</i>	
Xalq og'zaki ijodi va folklor turlarining ta'limdagi o'rni.....	2642
<i>Safarova Nigora Oxunjonovna, Bozorova Nozigul Ramazonovna</i>	

MUNDARIJA SOÐERJANIE CONTENTS	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqni o'stirishning zamonaviy va samarali yechimlari 2647 Karimova Kamola Komil qizi
	Tilshunoslikda terminlarning funksional xususiyatlari 2651 Yavminova Nafisa Mashrobjonovna
	Basketbol sport turining nazariy-metodik asoslari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalari 2654 Achilov Oybek Hakimovich
	Yuqori intensivlikdagi interval mashg'ulotlarda kardio-respirator chidamlilikni oshirish samaradorligi 2657 Adilbekov Toxir To'xtayevich
	Intensiv mashg'ulotdan so'ng yengil atletikachilarning ish qobiliyatini tiklash uchun ergogen moddalar 2661 Allamuratov Mirtaza
	Raqamli va real laboratoriyalarning integratsiyasi orqali fanlararo o'qitish samaradorligini oshirish 2665 Baymatova Nargiza Tuxtabayevna
	Pedagogical Foundations of Chemistry Lessons tn the use of Natural Resources of Karakalpakstan 2669 Gulnaz Nabatovna Bekimbetova
	Gandbolning zamonaviy rivojlanishi, texnik-taktik tayyorgarlik asoslari hamda to'garaklarda o'rgatish metodikasi 2673 O'rinov Oblaqul Jumayevich
	Оценка биохимических показателей адаптации юных спортсменов к скоростно-силовым нагрузкам 2676 Шукурова Сайёра Садуллаевна
	Sportchilarning musobaqa oldi psixoemotsional holatining tahlili 2680 Ummataliyev Sherzod Sherali o'g'li
	Teaching Perfect English Pronunciation 2683 Uralova Nigora Abduvaliyevna



BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI TA'LIMIDA MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARINI O'RGATISHNING AHAMIYATI

Jo'rayeva Zuxraxon Akbarali qizi

NamDPI Boshlang'ich ta'lim 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Kirgizov Nuriddin

NamDPI Boshlang'ich ta'lim

innovatsiyalari kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda mustaqil so'z turkumlarining leksik-semantik xususiyatlari ustida ishlashni tashkil etish masalalari yoritilgan. Unda ona tilini o'qitishning leksik jihatlariga oid asosiy tushunchalar ochib beriladi. Leksik komponent to'laonli nutqiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Shuningdek, ona tili fani o'quv dasturining mazmuniga qo'yiladigan dasturiy talablar hamda zamonaviy boshlang'ich sinf darsliklari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich maktab, so'zning leksik-semantik xususiyatlari, o'quvchilarning lug'at boyligini boyitish, leksik bilimlar, so'zning leksik ma'nosi.

Abstract: The article examines the organization of work on the lexico-semantic features of independent parts of speech in primary education. It reveals the key concepts of the lexical aspect of teaching the native language. Special attention is paid to the lexical component as a crucial element of full-fledged speech activity from the perspective of developing students' communicative competence. In addition, the study analyzes the curriculum requirements for the native language subject and modern primary school textbooks.

Key words: primary school, lexical-semantic features of the word, enrichment of students' vocabulary, lexical knowledge, lexical meaning of the word.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы организации работы над лексико-семантическими особенностями самостоятельных частей речи в начальных классах. Раскрываются основные понятия лексической стороны обучения родному языку. Особое внимание уделяется лексическому компоненту как важнейшей составляющей полноценной речевой деятельности с точки зрения формирования коммуникативной компетенции учащихся. Также анализируются программные требования к содержанию учебной программы по родному языку и современные учебники для начальных классов.

Ключевые слова: начальная школа, лексико-семантические особенности слова, обогащение словарного запаса учащихся, лексические знания, лексическое значение слова.

KIRISH

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida so'z turkumlarini o'rgatish nafaqat grammatik bilimlarni shakllantirish, balki o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ot, sifat, son va fe'l kabi mustaqil so'z turkumlarini o'rganish jarayoni o'quvchilarning leksik boyligini oshirish, tushunish qobiliyatini rivojlantirish hamda nutqda aniq va mazmunli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

"Har qanday ta'lim bosqichida ona tilini o'qitish jarayonining zaruriy tarkibiy qismi bo'lgan leksik-semantik ish o'qituvchining bolalarning ona tili lug'atini o'zlashtirishini ta'minlovchi muntazam va maqsadli faoliyati sifatida ko'rib chiqiladi: ular tomonidan leksik birliklarning semantikasini va ularni nutqda qo'llash qoidalarini to'liq o'zlashtirish, muloqot vazifasi va vaziyatiga mos ravishda nutqni idrok etish va yaratishda leksik birliklar bilan ishlash qobiliyatini rivojlantirish" [4, 84].

Bu vazifalar ona tili ta'limida so'z turkumlarining ma'no turlarini tushuntirish orqali amalga oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Ona tili fanidan milliy o‘quv dasturi”da boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuv namoyon etilgan ^[1].

Dasturda berilgan barcha nutqiy ko‘nikmalar (ON, TT, O‘T, YN) o‘quvchilarning til birliklarini (tovush, so‘z, gap, matn) turli vaziyatlarda qo‘llash, ular orasidagi bog‘lanishlarni tushunish hamda o‘ziga xos “til modeli”ni yaratish imkoniyatini beradi.

1. **Og‘zaki nutq (ON):** o‘quvchi muloqot jarayonida til qoidalariga rioya qilgan holda so‘zlash orqali tilning amaliy modelini yaratadi va uni sinab ko‘radi. Masalan, savol berish va boshqaning fikrini takrorlash kabi ko‘nikmalar o‘quvchiga dialogni tuzilma sifatida modellashtirishga yordam beradi.
2. **Tinglab tushunish (TT):** o‘quvchi tinglovchi sifatida tashqi til modelini (so‘zlovchining nutqini) qabul qiladi, tahlil qiladi va unga mos javob qaytaradi. Makon va zamonnini taxmin qilish yoki ko‘p bosqichli ko‘rsatmalarni tushunish kabi ko‘nikmalar murakkab til tuzilmalarini aqliy modellashtirishni talab qiladi.
3. **O‘qib tushunish (O‘T):** matn – bu yozma tilning tuzilgan modeli. O‘quvchi matnni o‘qib, uning tuzilishi (sarlavha, paragraflar), mazmuni (voqealar ketma-ketligi, g‘oya) hamda til xususiyatlarini (so‘zlar, iboralar) tahlil qiladi. Voqealar rivojini taxmin qilish va davom ettirish yoki ko‘chma ma‘noni tushunish matnni dinamik model sifatida idrok etishni rag‘batlantiradi.
4. **Yozma nutq (YN):** bu – o‘quvchining o‘z til modelini yaratish va ifodalashning eng faol shakli. Dastlab oddiy gap qurishdan boshlab, murakkab matnlar yaratishga qadar bo‘lgan bosqichlar o‘quvchida til qonuniyatlariga asoslangan yozma nutq modelini bosqichma-bosqich shakllantirishni ko‘rsatadi.

Lingvistik ko‘nikmalar (LK) bo‘limi bevosita til tizimini o‘rganish va modellashtirishga qaratilgan. Har bir bosqichda bu ko‘nikmalar murakkablashib boradi, bu esa o‘quvchilarning lingvistik tafakkurining rivojlanishini anglatadi.

- **1-sinf:** tovush–harf munosabati, bo‘g‘in kabi asosiy tushunchalar orqali tilning eng kichik birliklarini modelashtirish boshlanadi.
- **2-sinf:** so‘z turkumlari (ot, sifat, fe‘l) kiritiladi, ya‘ni so‘zlar guruhlariga bo‘linadi va ularning grammatik modeli shakllantiriladi. So‘z boyligi (sinonim, antonim) orqali leksik tizimni modellashtirish boshlanadi.
- **3–4-sinf:** gap tarkibi (egasi, kesimi va h.k.) chuqurroq o‘rganiladi, ya‘ni sintaktik modellashtirish kuchayadi. Omonim, olinma so‘zlar kabi murakkab hodisalar tilning tizimli tabiatini ochib beradi.

Dasturning spiralli tuzilishi va malakalarning bosqichma-bosqich rivojlanishiga asoslanishi 1–4-sinflar davomida har bir ko‘nikmaning izchil va murakkablashib borishini taqozo etadi. 3-sinfda “Otlarning ma‘no turlari”, “Otlar. Narsa, o‘simlik, tabiat hodisalari, o‘quv qurollari nomlari”, “Hayvon va parranda nomini bildirgan otlar”, “Sifatning ma‘no turlari”, “Sonlarning turlari”, “Yaqin ma‘noli fe‘llar”, “Fe‘l ma‘nolari ustida ishlash” kabi mavzular ^[2]; 4-sinfda esa “Sifatlarning ma‘no munosabati”, “O‘z va ko‘chma ma‘nodagi sifatlar”, “Rang-tus, maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar”, “Shakl bildiruvchi sifatlar”, “Xil-xususiyatni bildiruvchi sifatlar” ^[3] kabi mavzularning mavjudligi so‘z turkumlarini, avvalo, lug‘aviy ma‘nosini tushuntirish, o‘quvchilar nutqida faol qo‘llashi uchun grammatik mashqlar o‘tkazish zarurati mavjudligini ko‘rsatadi.

So‘z turkumlarini o‘rganishdagi asosiy vazifa o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, lug‘atini yangi so‘zlar bilan boyitishdir. Mustaqil so‘z turkumlari (ot, sifat, son, fe‘l) nutqning mazmuniy asosini tashkil etadi. Ularni o‘z vaqtida va to‘g‘ri o‘rganish o‘quvchilarga mavjud so‘z boyligini tizimli tushunish, yangi leksik birliklarni faol o‘zlashtirish, so‘zlarning ma‘nolari va qo‘llanish sohalarini aniqlashtirish imkoniyatini beradi.

Boshlang‘ich sinflarda mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatish quyidagi tamoyillarga asoslanadi.

1. **Amaliy yo‘nalganlik tamoyili.** O‘quvchilar grammatik qoidalarni amaliy mashqlar orqali o‘zlashtiradilar. Masalan, otning birlik va ko‘plik shakllarini o‘rganishda o‘quvchilar kundalik hayotdan misollar keltiradilar.
2. **O‘quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bog‘lanish.** Ta‘lim jarayoni o‘quvchilarning bevosita ko‘rganlari, eshitganlari va bilib olganlari bilan uzviy bog‘lanadi. Bu esa grammatik materialni yanada mazmunli va qiziqarli qiladi.
3. **Izchillik va murakkablashuv.** O‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda material asta-sekin murakkablashib boradi. Masalan, otni o‘rganishda avval shaxs va narsa nomlari, keyin esa grammatik toifalari (son, kelishik) o‘rganiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili ta‘limida mustaqil so‘z turkumlarini o‘rgatish aynan shu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Har qanday ta‘limiy o‘yin faoliyatida samaradorlikni ta‘minlash uchun ta‘lim va tarbi-



yaning birligiga e'tibor qaratish muhimdir, chunki ta'lim va tarbiya dars jarayonida bir-birini talab qiluvchi tushunchalardir.

Ba'zi o'qituvchilar faqat bilim berishga qaratilgan ta'limiy o'yin faoliyatida amaliyotga tatbiq etish jarayoniga, fanning nazariy bilimlarini mustahkamlashga hamda murakkab tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari va asosiy elementlarini o'zlashtirishga qaratilishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni shakllantirishni e'tibordan chetda qoldiradilar. Biroq, agar dars mavzuning faqat o'quv jihatlariga qaratilib, tarbiyaviy yoki rivojlantiruvchi jihatlari yetarlicha yoritilmasa, maqsadga erishib bo'lmaydi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarini bilim asosiga aylantirish darajasiga ko'tarish uchun turli zamonaviy pedagogik texnologiyalar, metod va usullar, ya'ni interfaol metodlarni qo'llash zarur. Har bir ta'limiy o'yin faoliyatining o'quv xususiyatidan tashqari, o'qituvchining mavzu doirasidagi faoliyati bolalarda faol harakatlanish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Masalan, ot, sifat, fe'l kabi mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishda, agar bolalar darsni to'liq tushunmasa, uning mohiyatini anglamasa, darsning maqsadini bilmasa va o'qituvchi bergan vazifalarni faqat majburiyat asosida bajarsa, bu holat bolaning o'rganishga bo'lgan qiziqishini pasaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, bolaga o'z fikrini himoya qilish, yangi o'rganilayotgan so'z turkumidan ixtiyoriy misollar keltirish imkoniyatini berish muhimdir.

Chunki bolaning jadal rivojlanishi, ma'rifatlanishi va ma'naviy barkamolligi bevosita uning o'qituvchisi faoliyati bilan bog'liq. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida yana bir muhim jihat shundaki, bolaning psixikasi va uning ichki dunyosining o'ziga xosligi doimo o'qituvchi e'tiborida bo'lishi kerak. O'qituvchi har bir bolaning so'z boyligi va tushunchalar dunyosiga individual yondashishi lozim.

An'anaviy o'qitish usullari bilimlarni tayyor shaklda taqdim etganligi sababli, bolalar uchun ularni amaliyotda qo'llash qiyin bo'lgan. Xususan, so'z turkumlarini o'rgatishda bolalar faqat o'qituvchi rahbarligida mavzu bo'yicha mustaqil fikrlash imkoniyati bilan cheklanganligi sababli mustaqil fikrlash va so'z yasash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan. Bu esa, o'z navbatida, bolalarning kelajakdagi hayotida nutqiy ifodani shakllantirishda va murakkab tushunchalarni tahlil qilishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar har bir ta'limiy o'yin faoliyati mavzusini butunlik tamoyili asosida, darsning asosiy maqsad va vazifalari sifatida hamda maktabgacha ta'limning mazmuni va xususiyatlariga tayangan holda o'rganish va tegishli tadqiqot metodlarini qo'llash imkonini beradi. O'z navbatida, boshlang'ich sinf ona tili ta'limining asosiy maqsadi bolalarga bilim asoslarini o'zlashtirishni o'rgatish, ilmiy fikrlash, qobiliyat, nutq va mustaqil fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, boshqalarning fikrlarini tushunishdan iboratdir.

Shu asosda, so'z turkumlarini o'rganish orqali bolalarning fikrlash salohiyati, aqliy rivojlanishi va mantiqiy fikrlashi rivojlanadi; o'z-o'zini anglashga, moddiy borliqni o'ziga xos tarzda idrok etishga hamda o'z fikr va hislarini go'zal ifodalay olish, bilimni amaliyotda qo'llash qobiliyatiga yo'l ochiladi. Bu haqda olim F. Rahmonov ta'kidlaganidek, "Til o'qitish nafaqat grammatik qoidalarni yodlatish, balki fikrlash mantiqini va madaniy merosni o'zlashtirish yo'lidir" [5, 15-be't].

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limi jarayonida bolalarning bilish kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning faol qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bilim, ko'nikma va malakalarni egallash bolalarning bevosita ishtirokini hamda o'qituvchilar tomonidan boshqaruvga asoslangan pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi.

Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning muhim jihati shundaki, bolalar ta'lim jarayonining teng huquqli a'zolariga aylanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar turlarini tanlash egallanayotgan bilim, ko'nikma va malakalar, tashkil etilgan darslarning shakli hamda qo'llanilayotgan metod va uslubiy usullarning xususiyatiga bog'liq.

Tilshunos olim M. Usmonova ta'kidlashicha, "So'z turkumlarini o'rganish bolalarda til tuzilishini idrok etish, nutqiy faollikni oshirish va mantiqiy fikrlashni shakllantirishning asosiy vositasidir" [6, 72-be't].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan yondashuv, o'quv jarayonida rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalaridan oqilona foydalanish boshlang'ich sinf ona tili darslarida muhim rol o'ynaydi. Bolalarning muayyan hayotiy vaziyatlarda topshiriqlarni bajarish usuli, qanday to'xtashlari hamda ularga berilgan vazifalarni qay darajada bajarishlari ko'p jihatdan boshlang'ich sinflardagi ta'lim sifatiga bog'liq.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'qituvchilar o'z ishlariga bir xil nuqtai nazardan yondashishlari zarur. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar har yoshdagi bolalarda o'z fikrini bildirish, mustaqil ravishda o'z nuqtai nazarini ifodalashga bo'lgan kuchli ehtiyojni yuzaga keltirishini hisobga olish lozim; shu sababli ona tili darslarida matnni o'qiyotgan yoki yangi so'z turkumini o'rganayotgan har bir bolaga ma'lumot haqida tayyor talqinlar bermasdan, o'z nuqtai nazariga ega bo'lish, so'z yasash hamda yangi gaplar tuzish imkoniyatini berish maqsadga muvofiqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatish nafaqat grammatik bilim berish, balki bolalarning rivojlantiruvchi ta'limi orqali ularning akademik bilimlari bilan bir qatorda hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini oshirish va ularni amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu ta'limda mashg'ulotlar va taqdimotlar, interfaol o'yinlar hamda loyihalar orqali so'z turkumlari bolalarning ongida tirik va amaliy obraz sifatida mustahkamlanadi, bu esa ularning nutqiy madaniyati va milliy o'zlikni anglash darajasini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil so'z turkumlari yuzasidan lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida quyidagi mashqlar taklif etiladi.

1-topshiriq. Ortiqcha so'zni toping va tanlovingizni tushuntiring.

- Stol, o'rindiqlik, choynak, divan (choynak – boshqalari mebel, u esa idish).
- Atirgul, saksovul, lolaqizg'aldoq, nargiz (saksovul – boshqalari gullar, u esa buta).
- Ali, Laylo, Nodir, Qosimov (Qosimov – boshqalari ism, u familiya).

2-topshiriq. Ma'nosiga ko'ra so'zni nomlang.

- Davlat boshlig'i – ... (prezident).
- Qo'lining barmoqlar bor qismidagi ichki tomoni – ... (kaft).
- Avtobus, metro, poyezd bilan qatnaydigan odam – ... (yo'lovchi).
- Metroda insonlar qulay harakatlanishi uchun pastdan tepaga yoki tepadan pastga harakatlanadigan elektron zina – ... (eskalator).

3-topshiriq. Keltirilgan so'zlar bilan turli ma'nalarda so'z birikmalari tuzing va ular bilan gaplar yarating.

Misol: og'ir metall, og'ir xarakter. Sanoat korxonalarida og'ir metallarga ishlov beriladi. – Botir biroz injiq, uning xarakteri og'irroq.

So'zlar: yangi (yangi ko'ylak, yangi xabar), o'tkir (o'tkir pichoq, o'tkir aql), toza (toza dasturxon, toza yurak), sovuq (sovuq suv, sovuq munosabat), to'g'ri (to'g'ri yo'l, to'g'ri gap), qabul qilmoq (mehmon qabul qilmoq, qaror qabul qilmoq), tinglamoq (musiqani tinglamoq, maslahatni tinglamoq), tortmoq (arqonni tortmoq, o'zini tortmoq), cho'zmoq (ipni cho'zmoq, suhbatni cho'zmoq), yuz (bolaning yuzi, daftarning yuzi).

4-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mos terminlarni tanlang.

- Birinchi ... amerikalik bokschining g'alabasi bilan yakunlandi.
- ... – harakat yoki holatni bildiruvchi mustaqil so'z turkumi bo'lib, zamon, shaxs va son bo'yicha o'zgaradi.
- Bo'lish amalida bo'linuvchi son ... deb ataladi.
- Opa-singillar tomonidan ... shaklida ijro etilgan qo'shiq mehmonlarga juda yoqdi.

Foydalanish uchun so'zlar: raund, fe'l, bo'luvchi, duet.

Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda mustaqil so'z turkumlarini o'rgatish ularning lug'aviy ma'nosini tushunish va nutq jarayonida to'g'ri qo'llay olish bilan bevosita bog'liqdir. Bolalarning faol ishtiroki va mantiqiy fikrlashiga yo'naltirilgan, mustaqil so'z turkumlarining lug'aviy ma'nosi ustida ishlashda tavsiya etilishi mumkin bo'lgan mashqlarning faqat ayrim namunalarigina keltirildi. Ushbu mashqlar o'qituvchiga o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish hamda so'zlarni og'zaki va yozma nutqda ongli qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u nafaqat grammatik bilimlarni shakllantirish, balki o'quvchilarning nutqiy, kognitiv va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mustaqil so'z turkumlarini o'rganish boshlang'ich sinflarda til o'qitishning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, kelgusida o'quvchilarning til savodxonligi va nutq madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayonida amaliy mashqlarga ustuvorlik berish, o'quvchilarning shaxsiy tajribasi bilan bog'lash va bosqichma-bosqichlikni ta'minlash mustaqil so'z turkumlarini samarali o'rgatishning asosiy shartlaridan hisoblanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf ona tili ta'limida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatish o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini shakllantirish, balki ularning nutqiy, leksik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ot, sifat, son va fe'l kabi mustaqil so'z turkumlari tilning mazmuniy asosini tashkil etib, o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqida fikrni aniq, mantiqiy va ifodali bayon etishiga xizmat qiladi. So'z turkumlarini lug'aviy-ma'noviy jihatdan tushuntirish, ularni real nutqiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining tilga ongli munosabatini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishda rivojlantiruvchi ta'lim, interfaol metodlar va amaliy mashqlarga asoslangan yondashuv o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatini faollashtiradi. Ayniqsa, so'zlarning lug'aviy ma'nosi ustida ishlash, sinonim, antonim va ko'chma ma'nolarni nutq jarayonida qo'llash o'quvchilarning lug'at boyligini sezilarli darajada kengaytiradi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir: boshlang'ich sinf ona tili darslarida mustaqil so'z turkumlarini o'rgatishda amaliy mashqlar ulushini oshirish; o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda interfaol o'yinlar, loyihaviy ishlar va muammoli vaziyatlardan keng foydalanish; darslik va qo'shimcha o'quv materiallarida so'z turkumlarining lug'aviy-semantik jihatlariga alohida e'tibor qaratish. Shuningdek, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash mustaqil so'z turkumlarini o'rgatish samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ona tili fanidan milliy o'quv dasturi. 2022–2023-o'quv yili uchun. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 16–27-b.
2. Toirova M. E. Ona tili. 3-sinf. I qism. – Toshkent, 2023;
3. Boynazarova D. D. Ona tili. 3-sinf. II qism. – Toshkent, 2023;
4. Boynazarova D. D. Ona tili. 3-sinf. III qism. – Toshkent, 2023;
5. Boynazarova D. D., Toirova M. E. Ona tili. 3-sinf. IV qism. – Toshkent, 2023.
6. Toirova M. E. Ona tili. 4-sinf. I qism. – Toshkent, 2023;
7. Boynazarova D. D., Toirova M. E. Ona tili. 4-sinf. II qism. – Toshkent, 2023;
8. Boynazarova D. D. Ona tili. 4-sinf. III qism. – Toshkent, 2023;
9. Boynazarova D. D., Toirova M. E. Ona tili. 4-sinf. IV qism. – Toshkent, 2023.
10. Плотникова С. В. Принципы лексико-семантической работы в школе в свете психолингвистической концепции лексикона человека // Педагогическое образование. – 2009. – № 2. – С. 84.
11. Rahmonov F. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 15 b.
12. Usmonova M. Boshlang'ich sinflarda til o'qitishning zamonaviy tendensiyalari. – Toshkent: Fan, 2021. – 72 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.